

IKKI TILLI LUG'ATLARDA TARJIMA TAMOYILLARI VA FRAZEOLOGIK MUVOFIQLIK MUAMMOLARI

Xayrullayev Shoxjaxon Nozimjonovich
Qarshi davlat universiteti doktoranti
<https://doi.org/10.5281/zenodo.19387799>

ANNOTATSIYA

Mazkur tezisdagi ikki tilli lug'atlarda tarjima tamoyillari hamda frazeologik birliklarning muvofiqlik muammolari lingvistik nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Xususan, lug'at tuzish jarayonida ekvivalentlik, adekvatlik va funksional moslik kabi asosiy tarjima tamoyillarining ahamiyati yoritiladi. Tadqiqotda frazeologik birliklarning semantik, stilistik va madaniy xususiyatlari inobatga olinmagan hollarda yuzaga keladigan nomuvofiqliklar misollar asosida ko'rib chiqiladi. Shuningdek, ikki tilli lug'atlarda frazeologizmlarni berishda to'g'ridan-to'g'ri tarjima, izohli tarjima va funksional analoglardan foydalanish usullarining afzalliklari tahlil etiladi.

KALIT SO'ZLAR: ikki tilli lug'at, tarjima tamoyillari, frazeologik birliklar, ekvivalentlik, adekvatlik, funksional moslik, semantik tahlil

TRANSLATION PRINCIPLES IN BILINGUAL DICTIONARIES AND ISSUES OF PHRASEOLOGICAL EQUIVALENCE

Khayrullayev Shokhjakhon Nozimjonovich
Karshi State University doctoral student

ANNOTATION

This study examines the principles of translation in bilingual dictionaries and the issues of phraseological equivalence from a linguistic perspective. In particular, it highlights the significance of key translation principles such as equivalence, adequacy, and functional correspondence in the process of dictionary compilation. The research analyzes cases of inconsistency that arise when the semantic, stylistic, and cultural features of phraseological units are not adequately taken into account, illustrating them with relevant examples. Furthermore, the study evaluates the advantages and limitations of different methods used to render phraseological units in bilingual dictionaries, including literal translation, descriptive translation, and the use of functional analogues.

KEYWORDS: bilingual dictionary, translation principles, phraseological units, equivalence, adequacy, functional correspondence, semantic analysis.

KIRISH

Hozirgi globallashuv sharoitida xorijiy tillarni o'rganishga bo'lgan ehtiyoj ortib borayotgani ikki tilli lug'atlarning ahamiyatini yanada oshirmoqda. Bunday lug'atlar til o'rganuvchilarga nafaqat so'zlar, balki frazeologik birliklarning ham mazmunini tushunishga xizmat qiladi. Tarjima jarayonida ayniqsa frazeologik birliklarning mos va to'g'ri talqini til va madaniyatlararo muloqotda katta ahamiyat kasb etadi. Shu sababli, ikki tilli lug'atlarda tarjima tamoyillari va frazeologik muvofiqlik muammolari dolzarb mavzuga aylangan. Ushbu maqolada ikki tilli lug'atlarda tarjimaning nazariy asoslari, frazeologik birliklarning ekvivalentlarini aniqlashdagi muammolar, hamda amaliy tahlillar asosida taklif etiladigan yondashuvlar ko'rib chiqiladi.

Ikki tilli lug‘at tuzishda asosiy tamoyillardan biri-tarjimaning aniqligi va foydalanuvchi uchun qulayligi hisoblanadi. Tarjima faqat semantik jihatdan emas, balki stilistik va pragmatik jihatdan ham muvofiq bo‘lishi kerak. Bu ayniqsa frazeologik birliklar uchun muhim, chunki ular ko‘pincha ko‘chma, emotsional yoki madaniy ma‘no yuklaydi. Frazeologik birliklarning izohli, kontekst asosida va stilistik belgilari bilan taqdim etilishi foydalanuvchiga to‘g‘ri anglash imkonini beradi. Tarjimashunoslikda keng qo‘llaniladigan tamoyillar-to‘liq ekvivalentlik, qisman ekvivalentlik va noekvivalentlik tamoyillaridir. To‘liq ekvivalentlik mavjud bo‘lgan holatlarda tarjima osonroq bo‘lsa-da, qisman yoki noekvivalent birliklarni tarjima qilishda leksikografik kontekst va madaniy tafovutlarni inobatga olgan holda izohli yondashuvdan foydalanadi. Leksikografik yondashuvlar orasida funksional ekvivalentlik (maqsad tilidagi o‘xshash funksiya), deskriptiv tarjima (tavsiflovchi), va stilistik moslashtirish usullari mavjud. Har bir yondashuv frazeologik birlikning ma‘no yukini iloji boricha to‘liq aks ettirishga qaratilgan. Frazeologik birliklar ikki tilda grammatik, semantik va stilistik jihatdan har doim ham mos kelavermaydi. Masalan, ingliz tilidagi 'to let the cat out of the bag' iborasining o‘zbek tilidagi mos ekvivalenti yo‘q. Bu ibora kontekstda 'sirni ochib qo‘yish' degan ma‘noni bildiradi, lekin o‘zbek tilidagi an‘anaviy ibora emas. Bu kabi holatlarda tarjimon yoki lug‘at tuzuvchi izohli, kontekst asosida, ba‘zida esa analogik yondashuvni tanlaydi. Muvofiqlik muammolarining sabablari-frazeologizmlarning madaniy xosligi, stilistik rangdorligi, leksik tarkibdagi farqlar bilan bog‘liq. Shuningdek, til egasining tasavvur doirasidagi farqlilik ham ekvivalentlik muammolarini keltirib chiqaradi. Bunday muammolarni hal qilish uchun lug‘atlarda har bir frazeologik birlikni alohida maqola sifatida berish, unga stilistik belgi, qo‘llanilish konteksti va kerak bo‘lsa, madaniy izohlar qo‘shilishi zarur. Bu nafaqat tarjimaning to‘g‘riligini ta‘minlaydi, balki til o‘rganuvchining anglash qobiliyatini ham oshiradi.

ASOSIY QISM

Ikki tilli lug‘atlar zamonaviy leksikografiyaning muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, ular turli tillar o‘rtasida lingvistik va madaniy vositachilik vazifasini bajaradi. Bunday lug‘atlarni tuzishda tarjima tamoyillarini ilmiy asosda belgilash, ayniqsa, frazeologik birliklarni adekvat ifodalash masalasi alohida dolzarblik kasb etadi. Chunki frazeologizmlar tilning milliy-madaniy xususiyatlarini o‘zida mujassam etgan murakkab birliklar bo‘lib, ularni oddiy leksik birliklar kabi bevosita tarjima qilish ko‘pincha semantik va stilistik yo‘qotishlarga olib keladi. Tarjima jarayonida eng muhim tamoyillardan biri ekvivalentlik hisoblanadi. Ekvivalentlik deganda manba tilidagi birlikning maqsad tilida mazmun va funksional jihatdan mos ifodasi tushuniladi. Biroq frazeologik birliklar doirasida to‘liq ekvivalentlik kamdan-kam hollarda uchraydi. Shu sababli, leksikografik amaliyotda qisman ekvivalentlik va funksional moslik kabi yondashuvlar keng qo‘llaniladi. Qisman ekvivalentlikda frazeologik birlikning asosiy semantik yadrosi saqlanadi, ammo uning stilistik yoki obrazli komponentlari to‘liq aks etmasligi mumkin. Funksional moslik esa birlikning nutqdagi vazifasi va kommunikativ ta‘sirini saqlashga qaratiladi. Frazeologik muvofiqlik muammolari, avvalo, tillar o‘rtasidagi madaniy tafovutlar bilan bog‘liq. Har bir til o‘ziga xos obrazlar, ramzlar va tarixiy tajribalar asosida shakllangan frazeologizmlarga ega. Masalan, bir tilda keng qo‘llaniladigan ibora boshqa til uchun mutlaqo begona yoki tushunarsiz bo‘lishi mumkin. Bunday hollarda to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjima kommunikativ xatolarga olib keladi. Shu bois lug‘at tuzuvchilar frazeologik birliklarni tarjima qilishda nafaqat lingvistik, balki madaniy kontekstni ham chuqur hisobga olishlari zarur. Ikki tilli lug‘atlarda frazeologik birliklarni berishning bir necha asosiy usullari mavjud. Birinchisi,

to'g'ridan-to'g'ri tarjima bo'lib, u faqat ikki til o'rtasida yuqori darajadagi semantik va obrazli moslik mavjud bo'lgan hollarda qo'llanadi. Ikkinchisi, izohli tarjima bo'lib, bunda frazeologizmning ma'nosi kengroq tushuntirish orqali ochib beriladi. Ushbu usul, ayniqsa, milliy-madaniy xususiyatlarga ega iboralarni ifodalashda samarali hisoblanadi. Uchinchisi, funksional analoglardan foydalanish bo'lib, bunda maqsad tilida o'xshash kommunikativ vazifani bajaruvchi boshqa frazeologik birlik tanlanadi. Mazkur yondashuv tarjimaning tabiiyligi va nutqiy mosligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, zamonaviy leksikografiyada korpus lingvistikasiga asoslangan yondashuvlar tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Korpus materiallari real nutq namunalarini tahlil qilish imkonini berib, frazeologik birliklarning qo'llanish chastotasi, kontekstual xususiyatlari va stilistik rang-barangligini aniqlashga yordam beradi. Bu esa lug'atlarda berilayotgan tarjimalarning aniqligi va ishonchligini oshiradi. Ayniqsa, ko'p variantli tarjimalarni taqdim etish foydalanuvchiga turli kontekstlarda mos keluvchi variantni tanlash imkonini beradi.

Frazeologik muvofiqlikni ta'minlashda yana bir muhim omil-stilistik moslikdir. Har bir frazeologik birlik ma'lum bir uslubiy qatlamga mansub bo'lib, uning noto'g'ri kontekstda qo'llanishi nutqning tabiiyligiga putur yetkazadi. Shu sababli lug'atlarda frazeologizmlarning uslubiy belgilari (so'zlashuv, kitobiy, rasmiy va boshqalar) aniq ko'rsatib berilishi lozim. Bu foydalanuvchiga nafaqat ma'noni tushunish, balki uni to'g'ri qo'llash imkonini ham beradi. Ikki tilli lug'atlarda tarjima tamoyillarini to'g'ri belgilash va frazeologik muvofiqlikni ta'minlash murakkab, ammo zarur jarayondir. Bu jarayon tilshunoslikning nazariy asoslari bilan bir qatorda amaliy tajriba, madaniy bilim va zamonaviy texnologiyalarni uyg'unlashtirishni talab etadi. Mazkur yondashuv asosida yaratilgan lug'atlar esa tarjima sifati va madaniyatlararo muloqot samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Tadqiqot uchun ikki asosiy manba tanlandi: 'English-Uzbek Learner's Dictionary' (T. Nazarov va boshqalar) va 'Oxford Advanced Learner's Dictionary'. Bu lug'atlarda frazeologik birliklar turlicha yondashuv asosida berilgan. Oxford lug'atida har bir ibora alohida maqola shaklida berilgan bo'lib, misollar, stilistik belgilar, qo'llanilish konteksti bilan boyitilgan. Bunday yondashuv foydalanuvchi uchun juda qulay. Nazarov lug'atida esa ba'zi frazeologizmlar umumiy tarzda berilgan bo'lib, ko'p hollarda kontekst va stilistik belgi keltirilmagan.

Taklif sifatida quyidagilarni ilgari surish mumkin: frazeologik birliklar lug'atlarda alohida maqola sifatida berilishi, ularning to'liq semantik yuki, qo'llanilish konteksti, stilistik va madaniy tavsifi ko'rsatilishi kerak. Elektron lug'atlar uchun esa interaktiv misollar, multimodal kontekstlar (video, ovoz) orqali frazeologizmlarni o'rgatish tavsiya etiladi. Ikki tilli lug'atlarda frazeologik birliklarni to'g'ri tarjima qilish va ularning muvofiqligini ta'minlash til o'rganuvchilar uchun katta ahamiyatga ega. Tarjima jarayonida semantik, stilistik va madaniy jihatlarni hisobga olish orqali frazeologizmlarning to'liq talqini mumkin bo'ladi.

Frazeologik birliklarni tarjima qilishda ekvivalentlik darajasi turlicha namoyon bo'ladi. Masalan, ingliz tilidagi "to kill two birds with one stone" iborasi o'zbek tilida "bir o'q bilan ikki quyovni urmoq" tarzida deyarli to'liq funksional va obrazli ekvivalentga ega. Bu holatda tarjimada ham semantik mazmun, ham obraz saqlanadi, ya'ni to'liq frazeologik muvofiqlik kuzatiladi. Biroq har doim ham bunday to'liq moslik uchramaydi. Masalan, ingliz tilidagi "spill the beans" iborasi so'zma-so'z tarjima qilinganda ("loviya to'kmoq") hech qanday ma'no anglatmaydi. Uning haqiqiy ma'nosi "sirni oshkor qilmoq" bo'lib, bu yerda izohli tarjima yoki

funksional analogdan foydalanish zarur bo'ladi. Ushbu misol frazeologik birliklarda bevosita tarjimaning yetarli emasligini ko'rsatadi.

Madaniy tafovutlar bilan bog'liq holatlar yanada murakkabdir. Masalan, ingliz tilidagi “as American as apple pie” iborasi milliy identifikatsiyani ifodalaydi. Uni o'zbek tiliga so'zma-so'z tarjima qilish maqsadga muvofiq emas, chunki “olma pirogi” o'zbek madaniyatida milliy ramz hisoblanmaydi. Bunday vaziyatda tarjimon mazmuni “milliylik ramzi sifatida” izohlash yoki kontekstga mos boshqa ifodani tanlashi lozim bo'ladi.

Yana bir muhim jihat-stilistik moslikdir. Masalan, ingliz tilidagi “kick the bucket” iborasi norasmiy uslubga xos bo'lib, “o'lmoq” ma'nosini bildiradi. Agar bu ibora rasmiy matnda ishlatilsa, uning o'rniga neytral variant tanlanadi. Lug'atlarda bunday uslubiy belgilarning ko'rsatilmaligi noto'g'ri qo'llanishga olib kelishi mumkin.

Ko'p variantlilik ham frazeologik tarjimada muhim o'rin tutadi. Masalan, ingliz tilidagi “break the ice” iborasi turli kontekstlarda “suhbatni boshlamoq”, “murosaga yo'l ochmoq”, yoki “rasmiylikni yumshatmoq” tarzida tarjima qilinishi mumkin. Bu esa lug'atlarda bir nechta variantni berish zarurligini ko'rsatadi.

Mazkur misollar shuni tasdiqlaydiki, frazeologik birliklarni tarjima qilishda yagona universal yondashuv mavjud emas. Har bir holatda kontekst, madaniy muhit va nutqiy vaziyatga mos ravishda eng maqbul tarjima usuli tanlanishi lozim.

Tahlil etilgan lug'atlardan ko'rinib turibdiki, frazeologik birliklarga yondashuvlarda ayrim yetishmovchiliklar mavjud. Kelgusidagi leksikografik ishlar uchun tavsiyalar-kontekstual izohlar, stilistik belgilar, madaniy sharhlar va multimodal vositalardan foydalanishni o'z ichiga oladi.

XULOSA

Mazkur tadqiqot ikki tilli lug'atlarda tarjima tamoyillari va frazeologik muvofqlik masalalarini tizimli tarzda tahlil qilishga qaratilgan bo'lib, tadqiqot natijalariga ko'ra, lug'at tuzishda frazeologik birliklarning lingvistik, stilistik va madaniy jihatlarini chuqur hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi. Frazeologizmlar tilning milliy-madaniy xususiyatlarini o'zida mujassam etgan murakkab birliklar bo'lgani sababli, ularni to'g'ridan-to'g'ri tarjima qilish ko'pincha mazmun yo'qotilishi yoki kommunikativ noaniqliklarga olib keladi. Shu sababli lug'at tuzuvchilar ekvivalentlik, qisman ekvivalentlik, funksional moslik va izohli tarjima kabi yondashuvlarni bilimlari ravishda qo'llashlari zarur.

Tadqiqot davomida keltirilgan misollar shuni ko'rsatadiki, frazeologik birliklarning tarjimasini faqat lingvistik jihatdan emas, balki madaniy va kontekstual parametrlar asosida ham baholanishi lozim. Masalan, “spill the beans” yoki “as American as apple pie” kabi iboralar bevosita tarjimada noaniqliklar tug'diradi, lekin izohli tarjima yoki funksional analoglardan foydalanish orqali ular foydalanuvchi uchun tushunarli va tabiiy tarzda ifodalanadi. Shu bilan birga, frazeologik birliklarni bir nechta variantlarda berish, ularning stilistik va kontekstual rang-barangligini ta'minlash lug'atlarning amaliy qiymatini oshiradi. Ikki tilli lug'atlarni ishlab chiqishda frazeologik muvofqlikni ta'minlash lingvistik aniqlik, madaniy moslashuv va stilistik uyg'unlikni uyg'unlashtirish orqali amalga oshiriladi. Bunday yondashuv nafaqat lug'atlarning nazariy qimmatini va ilmiy ahamiyatini oshiradi, balki tarjima amaliyotida ham yuqori samaradorlikni ta'minlaydi. Natijada, lug'at foydalanuvchisi tilning leksik va frazeologik boyliklarini to'liq va aniq tushunish imkoniyatiga ega bo'ladi, bu esa madaniyatlararo muloqot va til o'rganish jarayonlarini sezilarli darajada soddalashtiradi.

Shu bilan birga, zamonaviy leksikografiyada korpus yondashuvlaridan foydalanish, real nutq namunalarini tahlil qilish va frazeologik birliklarning qo'llanish chastotasini aniqlash lug'at sifatini yanada oshirishga xizmat qiladi. Bularning barchasi ikki tilli lug'atlarni nafaqat ilmiy, balki amaliy jihatdan ham samarali vositaga aylantiradi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Raxmatullayev Sh. R. O'zbek tilining frazeologik lug'ati. – Toshkent, 1982.
2. Nazarov T., G'anieva M. English-Uzbek Learner's Dictionary. – Toshkent, 2005.
3. Oxford Advanced Learner's Dictionary. Oxford University Press.
4. Moon R. Fixed Expressions and Idioms in English. – Oxford, 1998.
5. Karimov N. Frazeologik birliklarning tarjima talqini. – O'zbek tili va adabiyoti, 2020.
6. Zulfiqurov G'. Ikki tilli lug'atlarda tarjima va muvofiqlik muammolari. – Toshkent, 2019.
7. Cowie A.P. Phraseology and Dictionary. – Oxford, 2001.
8. Nida E. A. Toward a Science of Translating. – Leiden: Brill, 1964.
9. Baker M. In Other Words. – London: Routledge, 2011.
10. Bejoint H. Modern Lexicography. – Oxford University Press, 2000.